



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 14-fevral, № 31 (9202)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



IQTISODIYOTDA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR ISHGA SOLINADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Yig'ilish avvalida o'tgan yilgi makroiqtisodiy natijalar qayd etildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o'sib, 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiy o'sishning yarmidan ko'pi xizmatlar hisobiga ta'minlandi. Qishloq xo'jaligida gektaridan o'tacha daromad 4,5 mingdan 5 ming dollarga ko'paydi, mehnat unumdorligi 4,7 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga ilg'or, energiya tejamkor texnologiyalar kirib kelayotgani hamda yuqori qo'shilgan qiymat beradigan loyihalar ko'payib borayotgani natijasida bir yil ichida bir dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaydi.

Prezidentimiz 2026-yil uchun

belgilangan ko'rsatkichlarga to'xtalib, 6,6 foizli iqtisodiy o'sish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish rejasini geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy tebranishlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan ehtiyotkor prognoz ekanini ta'kidladi.

Shu bilan birga, har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari sohasiga yangicha boshqaruv olib kirib, resurslardan samarali foydalansa, an'anaviy eksport bozorlariga bog'lanib qolmasdan yangi yo'nalishlar ochsa, raqamlashtirish va sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislarni jamlab, innovatsiyalar kiritisa, yoshlarni jalb etib, "startup klub"lar tashkil etsa, iqtisodiy o'sishni yanada yuqori sur'atlarda

ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar borligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda strategik korxonalar samaradorligi va xarajatlarni qisqartirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

Milliy investitsiya jamg'armasini boshqarishga jalb etilgan "Franklin Templeton" kompaniyasi tahliliga ko'ra, korporativ madaniyatni kuchaytirish, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligida katta zaxiralar mavjud. 19 ta strategik korxona rahbarlariga xarid tizimi, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligi bo'yicha keskin choralar ko'rib, tannarxini 10 – 15 foizga qisqartirish vazifasi qo'yildi.

– Iqtisod qilish rejasini ishlab chiqarishni kamaytirish hisobidan emas, balki mahsulot

tannarxini qisqartirish orqali ta'minlanishi shart, – dedi Prezidentimiz.

Shuningdek, strategik korxonalarni "Yagona g'aznachilik" axborot tizimi bilan qamrab olish, xaridlarni risk-tahlil asosida toifalash orqali samarasiz xarajatlarga chek qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Hududiy sanoatni rivojlantirishdagi kamchiliklar keskin tanqid qilindi. Uch yilda respublika sanoati 21 foiz o'sgan bo'lsa-da, qator tumanlarda bu ko'rsatkich 10 foizga ham yetmagani, ayrim hududlarda kredit resurslari va investitsiyalarning o'sishi sanoat o'sishiga mutanosib ta'sir ko'rsatmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Viloyat hokimlarining birinchi o'rinbosarlariga 12 ta tumanga borib, bir oy

joyida ishlash, ishlab chiqarishi pasaygan korxonalarni "oyoqqa turg'azish" va ushbu tumanlarda sanoat o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Umuman, respublika sanoatini kamida 8,5 foizga o'stirish bo'yicha tarmoqbay va hududbay rejalarni tasdiqlash, birinchi chorak yakunida aniqlangan muammolar va ularning yechimiga qarab, rahbarlar faoliyatiga baho berish belgilandi.

Yurtimizda yiliga 650 ming dona avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega 4 ta yirik korxona mavjudligi, bu yil 300 dan ziyod mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya asosida yana 763 ta detal ishlab chiqarishni boshlash hamda avtomobil ishlab chiqarishni 510 mingga

yetkazish zarurligi ta'kidlandi. Aholi talabini rag'batlantirish maqsadida avtokredit stavkalarini pasaytirish va hajmini oshirish choralarini ko'rish topshirildi.

Investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni samarali amalga oshirish bo'yicha yangi boshqaruv yondashuvlari belgilandi.

Joriy yil 50 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelish rejasini qo'yilgani, yangi loyihalar, birinchi navbatda, yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga, resurslardan samarali foydalanish hamda yuqori daromadli ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishi zarurligi ta'kidlandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

ELEKTROTEXNIKA SANOATI TARAQQIYOTIMIZ DRAYVERLARIDAN BIRIGA AYLANTIRILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-fevral kuni Toshkent viloyatining Ohangaron tumaniga tashrif buyurib, elektrotexnika sanoati texnoparkidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Dastlabki manzil yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Enco Group" korxonasi bo'ldi.

Mamlakatimizda energetika tarmog'ini jadal modernizatsiya qilish, yangi elektr stansiyalari va nimstansiyalar qurish, magistral tarmoqlarni yangilash hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholi sonining o'sishi natijasida elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlariga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talab shakllanmoqda.

Faoliyati ushbu talabni qondirishga qaratilgan "Enco Group" korxonasi Belarus Respublikasining "EnergoKomplekt" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Eltech Industrial" texnoparki hududida 21 gektar maydonda barpo etilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati qariyb 60 million dollarni tashkil etadi.

Korxona to'liq quvvatga chiqqanidan so'ng 600 ga yaqin ish o'rinlari yaratiladi.

Loyiha ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Korxona yiliga 25 ming tonna mahsulot ishlab chiqarishi, eksport salohiyati 300 million dollarni tashkil qilishi kutilmoqda.

Ayni paytda qurilish ishlarining birinchi bosqichi 98 foizga yakunlangan, 10 million dollardan ortiq investitsiya o'zlashtirilgan. Korxona mahsulotlarini Germaniya, Latviya, Estoniya, Bolgariya va MDH davlatlariga eksport qilish rejalashtirilgan bo'lib, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, yillik eksport hajmi 140 million dollarga yetishi taxmin qilinmoqda.

O'tgan yili mamlakatimizga 400 million dollarga yaqin yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlari va izolyatsiyalangan mis shinalar import qilingan. Korxona to'liq ishga tushirilgandan keyin 150 million dollarlik import o'rnini bosuvchi shunday mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Markaziy Osiyoda bunday yo'nalishda faoliyat yuritayotgan 12 ta korxonaning 4 tasi O'zbekis-

ton hissasiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatimizda elektrotexnika sanoati bosqichma-bosqich yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqqa aylanayotganini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbariga korxonaning kelgusidagi rivojlanish rejalari, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish hamda mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo'yicha takliflar taqdimot qilindi.

Prezidentimiz sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish yuzasidan mas'uliyatlariga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Ohangaron tumanidagi "Vades Group" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan yuqori texnologiyali loyiha bilan tanishdi.

Mazkur korxonada identifikatsiya uchun mo'ljallangan mikroprotsessor modullari, sim-

kartalar, shuningdek, transport, ijtimoiy va xalqaro to'lov kartalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvarda "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Hujjatda elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish borasida vazifalar belgilab berilgan.

Shunga muvofiq korxona raqamli davlat xizmatlarini joriy etish, fuqarolarning kundalik ehtiyojlari uchun qulay va xavfsiz to'lov tizimlarini shakllantirishda zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqaradi.

Germaniyaning "Infineon technologies" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Eltech Industrial" texnoparki hududida tashkil etilayotgan korxonaning umumiy qiymati 15 million dollarga teng.

Ayni vaqtda qurilish ishlarining ikkinchi bosqichi o'n besh foizga bajarilib, 7 million dollar investitsiya o'zlashtirilgan.

Hududi 4 gektar maydonni egallagan zamonaviy majmuada 100 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratiladi, 6 million dollarlik eksport amalga oshiriladi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, 2025-yil davomida mamlakatimizga 35 million dollarlik mikroprotsessor modullari, sim-kartalar va turli to'lov kartalari import qilingan.

Mazkur korxona to'liq ishga tushishi hisobiga 5 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilib, bozordagi tannarx uch – besh foizga pasayishi kutilyapti.

Zamonaviy korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston hamda Mozambik, Kambodja kabi qator davlatlarga eksport qilinadi.

Davlatimiz rahbari MDH davlatlari orasida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinda bo'lishi kutilayotgan ushbu korxonada yaratilayotgan shart-sharoitlar, texnologik ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.



Senat qo'mitasida

HUJAYRA TERAPIYASINI YO'LGA QO'YISHNING HUQUQIY ASOSLARI YARATILADI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Dastlab Senatning 9-yalpi majlisida rad etilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunga, jumladan,

uning qayta ishlanib takomiliga yetkazilgan normalariga e'tibor qaratildi.

Ushbu qonun bilan "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi hamda "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida qo'shimcha xizmatlar hisoblanadigan tibbiy yordam turlari belgilanishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.



XALQ ISHONCHINI QOZONAYOTGAN LOYIHA

Mamlakatimiz hududlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar haqida gap ketganda, ayniqsa, "Tashabbusli byudjet" masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki "Tashabbusli byudjet" shunchaki moliyalashtirish mexanizmi emas, balki u fuqarolarning mutlaq tanlovi, xalq dardi ifodasi, yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarning samarali yechimidir.

2021-yilda "Tashabbusli byudjet" 14 ta tuman (shahar)da tajriba tariqasida birinchi marta joriy etildi, 2022-yildan boshlab esa barcha tuman va shaharlarda mahalliy byudjet xarajatlarning 5 foizi ushbu jarayonga yo'naltirildi. Va umuman, 2021 – 2025-yillar davomida 17 trln. so'mlik 18 mingdan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Masalan, 4 mingga ichki yo'llar, 5 mingga maktab, 2

mingta tibbiyot muassasasi ta'mirlandi, qayta jihozlandi, shuningdek, 1 mingga yaqin zamonaviy mahalla binolari barpo etildi.

Keyingi yillarda esa bu borada katta tajriba to'planib, u takomillashtirib bordi. 2026-yildan boshlab deputat tashabbusi loyihasi instituti, sheriklik asosida moliyalashtirish (50X50 va 75X25) tartiblari joriy etildi.



Nuqtai nazar

MOLIYAVIY YUKSALISH — STRATEGIK TANLOV

Prezidentimiz raisligida kecha bo'lib o'tgan yig'ilishda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim yo'nalishlar, erishilgan natijalar va ko'rsatkichlar bilan bir qatorda e'tibordan chetda qolgan ayrim masalalarga ahamiyat qaratilib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O'tgan yil yakunlari bilan mamlakat yalpi ichki mahsuloti 7,7 foizga o'sib, 147 milliard dollardan oshgani ta'kidlandi. Aytish mumkinki, mazkur raqamlar otida minglab korxonalardagi modernizatsiya jarayonlari, yangi investitsiya loyihalari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan tizimli islohotlar turibdi.

Ayniqsa, iqtisodiyotga energotejamkor

va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish natijasida bir dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaygan. Bu iqtisodiy o'sish faqat hajm jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham ta'minlanayotganini anglatadi. Zero, bugungi dunyoda arzon va samarali ishlab chiqarishga erishmagan mamlakat global bozorda mustahkam o'rin egallay olmaydi.



INSON QADRINI ULUGʻLASHGA YOʻNALTIRILGAN SIYOSAT — MUVAFFAQIYAT GAROVI

Xitoyning nufuzli “Belt and Road Outlook” jurnalida Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot modeliga oʻtishi haqida maqola nashr qilindi


Xitoyning mashhur “Belt and Road Outlook” jurnali sahifalarida Xitoy Xalqaro muammolar akademiyasi Yevroosiyo tadqiqotlari instituti direktori Li Szigoning Oʻzbekistonning zamonaviy taraqqiyotiga bagʻishlangan tahliliy maqolasi chop etildi.

E'tirof

Nufuzli ekspert Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot modeliga oʻtayotganini, islohotlar institutsional, ijtimoiy va strategik, eng muhimi, ortga qaytmas tus olayotganini taʼkidladi. Davlatimiz rahbarining “yangi taraqqiyparvar Oʻzbekiston”ni barpo qilish, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini hayotga tatbiq etishdagi islohotchilik roliga alohida eʼtibor qaratilgan. Muallifning taʼkidlashicha, inson qadriini ulugʻlash va aholi turmush sifatini oshirishni asosiy ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylantiruvchi davlat siyosati mamlakatda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar muvaffaqiyatining garovi sifatida qaraladi.

Yoshlarni oliy taʼlim bilan qamrab olishning izchil oʻsish koʻrsatkichlari, kambagʻallik darajasining sezilarli koʻrsatkichda qisqarishi va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi boshqa muhim natijalar ham islohotlar samaradorligidan dalolat beradi. Muallif taʼkidlaganidek, ijtimoiy siyosat modernizatsiya strategiyasining markaziy elementiga aylandi va keng jamoatchilik tomonidan qoʻllab-quvvatlanmoqda.

Tahlilchining fikricha, parlament vakolatlarining kengayishi, har ikki palata rolining kuchayishi davlat boshqaruvi tizimini yanada demokratlashtirishga boʻlgan intilishni aks ettiradi. Shu nuqtai



nazardan, iqtisodiy islohotlar mamlakatning barqaror investitsiyaviy jozibadorligini taʼminlab, Oʻzbekistonning mintaqadagi eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiy markaz sifatidagi imijini mustahkamlamoqda. Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlishi esa rejalashtirilayotgan ochiqlik siyosatining mantiqiy davomi boʻlib, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini mustahkamlaydi, oʻzbek eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Xitoylik ekspertning fikricha, tashqi siyosat kursi Oʻzbekiston diplomatiyasining ochiq, pragmatik va koʻp vektorli xususiyatini namoyish etadi. Shu bilan birga, maqolada Markaziy Osiyoga ustuvor yoʻnalish sifatida alohida urgʻu

berilgan. Xususan, mintaqada chegara masalalarini tartibga solish, “Markaziy Osiyoning oʻziga xosligi”ni shakllantirish hamkorlik, barqarorlik va integratsiyaga yoʻnaltirilgan mullaqo yangi mintaqaviy siyosat paradigmasining dalili sifatida tavsiflanadi.

Maqolada dolzarb ekologik va “yashil” kun tartibi muhim oʻrin tutadi, Oʻzbekistonning barqaror rivojlanish global tendensiyalariga moslashishga intilishi yorqin jilolantiriladi. Orol inqirozining koʻlamini hisobga olgan holda ekologik yoʻnalish nafaqat xalqaro, balki ichki strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston – Xitoy munosabatlariga alohida boʻlim bagʻishlangan. Li Szigoning fikricha, aloqalarni har tomonlama strategik sheriklik darajasiga koʻtarish, Xitoy bilan savdo va investitsiyalar oqimining barqaror oʻsishi oʻzaro hamkorlikning strategik chuqurligini anglatadi. Xitoy yetakchi iqtisodiy hamkor, texnologiyalar va infratuzilma loyihalari manbai, jumladan, Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli muhim geoijtsodiy ahamiyatga ega.

Maqolada Oʻzbekistondagi keng koʻlamli islohotlarning mazmun-mohiyati atroflicha ochib berilgan. Muallif xulosa qilganidek, kuchli ijtimoiy yoʻnalish, iqtisodiy modernizatsiya, institutsional mustahkamlash va faol tashqi siyosatni oʻzida mujassam etgan islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

“Dunyo” AA.
Pekin

Munosabat

Prezidentimiz raisligida oʻtkazilgan tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlashga bagʻishlangan yigʻilish mamlakat iqtisodiyoti yangi bosqichga oʻtayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

RAQAMLAR IJOBIY, AMMO YONDASHUVNI TUBDAN YANGILASH ZARUR

Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida daromad va mehnat unumdorligining oʻsishi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanishini anglatadi.

Biroq tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, ayrim tarmoqlarda qoʻshilgan qiymat darajasi hali ham pastligicha qolmoqda. Soʻnggi uch yilda sanoatda umumiy qoʻshilgan qiymat ulushi oshgan boʻlsa-da, avtomobilsozlik, elektr uskunalari, oziq-ovqat, charm va kimyo sanoatida bu koʻrsatkich kutilgan darajaga chiqmagan. Vaholanki, ushbu sohalarga katta miqdorda investitsiya kiritilgan va yangi quvvatlar ishga tushirilgan.

Bu holat investitsiyalarning samaradorligi, texnologik yangilanish surʼati va bozor mezonlariga moslashish darajasi yuzasidan jiddiy tahlil talab qiladi. Masalan, qishloq xoʻjaligida agrotexnologiya oʻzgarayotgan bir paytda kimyo sanoatining mahsulot turlarini diversifikatsiya qilishda sustkashlikka yoʻl qoʻyayotgani tizimli muammo mavjudligini koʻrsatadi.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar – yangi eksport yoʻnalishlarini topish, sunʼiy intellekt va raqamlashtirishni jadal joriy etish, “startap klub”lar tashkil qilish, yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishga yoʻnaltirish – iqtisodiy

oʻsishning yangi drayverlarini shakllantirishga qaratilgan.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, investitsiya loyihalarining qoʻshilgan qiymat yaratish samaradorligi boʻyicha aniq indikatorlarini joriy etish, tarmoq rahbarlarining innovatsiya va texnologik yangilanish boʻyicha shaxsiy masʼuliyatini kuchaytirish, sanoat tarmoqlarida energotejamkor va yuqori darajali mahsulot ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish masalalari juda muhim boʻlib, bu borada parlament nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Zero, bugungi vazifa iqtisodiy oʻsishni saqlab qolish emas, balki uning sifatini oshirishdir. Raqamlar ijobiy, ammo barqaror va yuqori sifati oʻsishga erishish uchun boshqaruv madaniyati, texnologik yondashuvni tubdan yangilash zarur.

Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Husan YARQULOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



Qulaylik

GULISTONNING SHARQU GʻARBINI BOGʻLAYDIGAN INSHOOT

Gulistonning mahalliy aholi tilida “Mahalla” deb yuritiluvchi qismi shahar markazi bilan 2 ta avtomobil va 1 ta piyodalar koʻprigi orqali bogʻlangan. Chunki oʻrtada xalqaro ahamiyatdagi temir yoʻl bor.



Piyodalar koʻprigi temir yoʻl ustiga qurilgan boʻlib, anchayin baland: qariyalar, nogironligi borlar va boshqa jismoniy imkoniyati cheklanganlar harakatlaniishi qiyin. Shaharning bu ikki hududiga avtoulovlardagi bordi-keldi uchun esa ancha-muncha vaqt va pul sarflashga toʻgʻri keladi. Holbuki, temir yoʻl ajratib turgan oraliq masofa 200 – 300 metrning nari-berisida, xolos. Toʻgʻri, “Guliston” temir yoʻl stansiyasining janubida yer usti piyodalar yoʻlagi bor. Lekin u shaharning “Mahalla” qismidan va jamoat transporti qatnovidan chetda. Qolaversa, mazkur piyodalarni oʻtkazish yoʻlagi poyezdlar harakati vaqtida yopiq boʻladi.

Gulistonning ayni hududida piyodalar uchun qulaylik yaratish masalasi bir necha yildan buyon dolzarb boʻlib kelayotgan edi. Shukrki, ushbu muammo tez orada oʻzining maqbul yechimini topishi kutilayotir.

Hozirgi kunda shaharning bir necha mahallalari joylashgan gʻarbiy qismi – “Mahalla” mavzesi va sharqiy qismi – shahar markazi oʻrtasidagi temir yoʻldan yer osti yoʻli – tunnel qurish loyihasi koʻrib chiqilmoqda. Shu bilan birga, temir yoʻl ustiga qurilgan piyodalar koʻprigiga chiqish-tushish eskalatorlarini oʻrnatish choralarini ham koʻrilayotir.

Ahmadali ShERNAZAROV
(«Xalq soʻzi»).

ADABIY MEROS VA DAVLATCHILIK ANʼANALARI

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq sivilizatsiyasi tarixida butun bir davrning ramzi sifatida namoyon boʻladi. Uning shaxsiyatida davlat arbobi va sarkardaning qatʼiyati, islohotchining jasorati, shoirning nozik qalbi hamda mutafakkirning keng tafakkuri uygʻun holda jamlangan. Boburni faqat boburiylar sulolasi asoschisi yoki “Boburnoma” muallifi sifatida eslash uning tarixiy missiyasini toʻla ifodalamaydi. U Markaziy Osiyodan Janubiy Osiyogacha boʻlgan ulkan hududni bogʻlab, xalqlar, madaniyatlarni va sivilizatsiyalar oʻrtasida mustahkam maʼnaviy va siyosiy koʻpriklar barpo etgan nodir shaxs edi.

Mulohaza

Ulugʻ bobomiz siyosiy parokandalik oʻrnida tartib-intizom, beqarorlik oʻrnida esa barqarorlik gʻoyasini qaror toptirdi. Uning maʼmuriy islohotlari shahar madaniyatining yuksalishi, savdo-sotiq yoʻllarining faollashuvi va mintaqaviy iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Shu bois Bobur faqat sarkarda emas, balki davlat va jamiyatni isloh etgan bunyodkor sifatida ham tarixda qoldi.

Davlat boshqaruvida harbiy intizom, adolat hamda masʼuliyat tamoyillarini ustuvor deb bilgan Bobur hokimiyatni qonun va tartib orqali mustahkamlashga intildi. Soliq yigʻish tizimini tartibga solish, yer munosabatlarini aniq qoidalarni asosida yoʻlga qoʻyish va maʼmuriy boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan saʼy-harakatlari davlat tizimi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Boburiylar davlati tarkibiga kirgan hududlar siyosiy barqarorlik va iqtisodiy oʻsish davrini boshidan kechirdi. Savdo yoʻllari xavfsizligining taʼminlanishi,

shaharlar atrofida qishloq xoʻjaligining rivojlanishi, hunarmandchilik markazlarining shakllanishi mintaqada iqtisodiy integratsiyani sezilarli darajada kuchaytirdi. Bu jarayon Janubiy Osiyoni xalqaro savdo tizimiga faol jalb etib, mintaqaning strategik ahamiyatini yanada oshirdi.

Shu maʼnoda, Bobur va uning avlodlari nafaqat siyosiy hukmdorlar, balki mintaqaning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga yoʻl ochgan tarixiy kuch sifatida ham baholalanadi.

Madaniy jihatdan boburiylar davrida turkiy, forsiy va hind anʼanalari uygʻunlashgan mullaqo yangi meʼmoriy hamda badiiy uslub shakllandi. Bu sintez, ayniqsa, qad rostlagan qasrlar, masjidlarni va bogʻlar qiyofasida yorqin namoyon boʻladi. Garchi ayrim yirik meʼmoriy inshootlar Boburdan keyingi hukmdorlar davrida barpo etilgan boʻlsa-da, ularning ildizida aynan Bobur tomonidan yaratilgan



davlatchilik anʼanalari va madaniy muhit yotar edi. Shuningdek, boburiylar davrida madaniy-diniy bagʻrikenglikka asoslangan siyosat shakllandi. Turli din va millat vakillarining davlat xizmatiga jalb etilishi jamiyatda ijtimoiy adolat hamda muayyan ijtimoiy mobillikni taʼminladi. Bu tajriba hozirgi koʻp millatli va koʻp konfessiyali jamiyatlarni uchun ham tarixiy saboq hamda amaliy namuna sifatida qimmatli ahamiyat kasb etadi.

Boburning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, unda geosiyosiy moslashuvchanlik va strategik fikrlash, madaniy xilmaxillikni davlatchilik manfaatlari bilan uygʻunlashtirish, maʼnaviy hamda estetik qadriyatlarini siyosiy jarayondan ajratmaslik kabi muhim jihatlarni koʻzga yaqqol tashlanadi. U kuch va qonunga tayangan hukmdor boʻlish bilan birga, madaniyat, sanʼat va maʼnaviyatni davlat barqarorligining ajralmas qismi sifatida koʻra olgan nodir shaxs edi. Aynan shu yondashuv Bobur davlatchiligini faqat harbiy gʻalabalar bilan emas, balki maʼnaviy mazmun bilan ham boyitdi.

U yaratgan siyosiy va madaniy muhit asrlar davomida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga chuqur taʼsir koʻrsatdi. Bugungi kunda saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklar, adabiy meros va davlatchilik anʼanalari orqali bu taʼsirni yaqqol his etish mumkin. Mazkur meros oʻtmish xotirasi emas, balki hali ham yashab kelayotgan tarixiy voqeeligidir.

Shu maʼnoda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 5-6-fevral kunlari Pokiston Islom Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrfi ikki mamlakat oʻrtasidagi doʻstlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash yoʻlidagi muhim tarixiy qadam sifatida baholalanadi. Savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, logistika va gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ushbu tashrif doirasida davlatimiz rahbariga Pokistonning oliy davlat mukofoti – “Nishoni Pokiston” ordenining topshirilishi hamda Islomobod shahrida barpo etilayotgan yangi boqqa Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berilgani ikki tomonlama munosabatlarda chuqur ramziy maʼhoga ega. Bu, bir tomondan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar va mintaqaviy hamkorlik hamda xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan saʼy-harakatlarning yuksak eʼtirofi boʻlsa, ikkinchi tomondan, ikki xalq davlatchilik tarixining mustarak ildizlarga egaligini ifoda etadi.

Bobur merosi bugun ham tarixiy xotira, milliy oʻzlik va madaniy muloqot masalalarida muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan, uning faoliyatini oʻrganish nafaqat oʻtmishni anglash, balki zamonaviy davlatchilik tajribasi va ijtimoiy taraqqiyot yoʻllarini belgilash uchun ham qimmatli xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Rahmatillo SHUKUROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BIR YONI QULAGAN BINONING QOLGANI BARDOSHLIMI?

2020-yil 23-iyun kuni Qarshi shahrida qurilishi yakunlangan besh qavatli binoning bir qismi qulab tushib, surxondaryolik bir ishchi halok boʻlgan edi. Oʻsha paytda mazkur holat jamoatchilik orasida keng muhokama qilindi.

Achchiq, ammo ochiq gap

Qurilish vazirligi (oʻsha vaqtdagi nomi) voqeyaga tezkor munosabat bildirib, ushbu bino noqonuniy qurilish ekanini, obyektni qurayotgan “Nasaf-Travel” kompaniyasi belgilangan tartibga muvofiq, viloyat qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasini xabardor etmaganini taʼkidlagandi. “Qashqadaryo viloyati Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan oʻrganish ishlari olib borilganida, “Nasaf-Travel” kompaniyasiga tegishli ushbu obyektidagi qurilish ishlari roʻyxatga olinmasdan, noqonuniy olib borilgani maʼlum boʻldi”, deyilganidek vazirlik munosabatida.

Natijada bir muddat binoda qurilish ishlari toʻxtatib qoʻyildi. 2024-yildan boshlab esa binoning faqat qulagan qismigina olib tashlanib, inshootni tiklash davom

ettirildi. Ayni paytda obyektida qurilish ishlari deyarli yakunlanib, bir qismidan foydalanish boshlab yuborilgan...

Endi haqli savol tugʻiladi: tadbirkor obyektida qurilish ishlari davom ettirish uchun keyinchalik Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining ruxsatini olganmi? Agar olgan boʻlsa, inspeksiya mutaxassislari binoning qolgan qismi mustahkam ekanligi, qurilishni davom ettirish mumkinligini qaysi mezonlarga koʻra tekshirib koʻrgan va xulosa bergan?

Shu kabi savollarni bilan Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasiga murojaat etdik. Inspeksiya boshligʻi Jamoliddin

Toshinov bino mustahkam ekanini, tadbirkorga qurilishni davom ettirish uchun inspeksiya tomonidan tegishli ruxsatnoma berilganini aytgan boʻlsa-da, tafsilotlarga toʻxtalishni istamadik. Barcha savollarga oʻzining matbuot kotibi orqali javob bera olishini bildirdi.

Shundan soʻng savollarimizni ochiq koʻrinishga keltirib, inspeksiyaning axborot xizmati rahbariga berdik. Ammo uch kun kutdik hamki, savollarga javob ololmadik. Nihoyat uchinchi kun matbuot kotibi uzromuz ohangda rahbari endi rasmiy xat talab qilayotgani, javobni ham xat orqali berishini aytdi.

Biz inspeksiya rahbariga mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq siyosati, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi, “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi hamda “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunlarda belgilab



qoʻyilgan haq-huquqlarimizni aytib, tortishib oʻtirmadik. Zero, bundan foyda yoʻqligini u bilan boʻlgan dastlabki suhbatdoyoq anglagandik. Shu bois Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi boshligʻi Jamoliddin Toshinovga savollarimizni rasman OAV orqali ochiq berishga qaror qildik. Savollar mazmuni esa oʻsha-oʻsha: birinchi, besh yil

oldin bir qismi qulab tushgan binoda qurilishni davom ettirish uchun rasmn ruxsat berilganmi? Ikkinchi, agar ruxsat berilgan boʻlsa, binoning qolgan qismi mustahkamligi qaysi mezonlar asosida tekshirildi? Uchinchi, bino mustahkam, sifatlil qurilish materiallaridan tiklanayotgan boʻlsa, bir qismi nega qulagan edi? Sabablari oʻrganildimi?

Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi masʼullaridan savollarimizga aniq hamda asosli javob kutamiz.

Jahongir BOYMURODOV
(«Xalq soʻzi»).



«ARKTIKA QOʻRIQCHISI» MISSIYASI

“Reuters” AA xabariga qaraganda, NATO oʻz harbiylarining sonini Arktikada kengaytirish boʻyicha “Arctic Sentry” (“Arktika qoʻriqchisi”) missiyasi boshlanganini eʼlon qildi.

“Arktika qoʻriqchisi” operatsiyasi alyansning oʻz aʼzolari xavfsizligini taʼminlash va dunyoning strategik jihatdan eng muhim va ekologik murakkab mintaqalaridan birida barqarorlikni saqlashga sodiqligini taʼkidlaydi”, dedi AQSh Harbiy-havo kuchlari generali, Yevropadagi NATO kuchlari bosh qoʻmondoni Aleksus Grinkevich.

“Bloomberg” maʼlumotlariga koʻra, Arktika mintaqasida xavfsizlik manfaatlarini kuzatish va himoya qilish uchun “Arktika qoʻriqchisi” missiyasini tashkil etishni Germaniya taklif qilgan. “Reuters” muxbiri esa NATO Arktikadagi missiyasini AQSh Prezidenti Donald Tramp va alyans bosh kotibi Mark Ryutte oʻrtasida Davosda boʻlib oʻtgan muzokaralardan keyin rejalashtirgan, deb yozmoqda.

REFERENDUMGA TAYYORGARLIK BOSHLANDI

Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev yangi Konstitutsiyani qabul qilish masalasi boʻyicha umumxalq referendumini 15-mart kuni oʻtkazish toʻgʻrisida farmon imzoladi.

Avvalroq, yaʼni 10-fevral kuni Konstitutsiyaviy komissiya davlat rahbariga yangi Konstitutsiyaning yakuniy loyihasini taqdim etgandi. Loyihani barcha partiyalar qoʻllab-quvvatlagan.

Taklif qilinayotgan konstitutsiyaviy oʻzgarishlarning asosiy yoʻnalishlari parlament rolini kuchaytirgan holda hokimiyat tarmoqlari oʻrtasida vakolatlarini qayta taqsimlash, hukumat ustidan parlament nazorati mexanizmlarini kengaytirish, sud tizimining mustaqilligini oshirish va konstitutsiyaviy nazorat institutini rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, loyihada fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini aniqlashtirish hamda kengaytirish, shuningdek, nomarkazlashtirish elementlari – mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va masʼuliyatini kuchaytirish koʻzda tutilgan.

PARVOZDAGI NOSOZLIK VA UCHUVCHINING JASORATI

10-fevral kuni Somaliya yoʻlovchi samolyoti Mogadisho aeroportidan havoga koʻtarilganidan bir necha daqiqa oʻtib, unda texnik nosozlik aniqlangan. Hodisa “Starsky Airlines” aviakompaniyasining “Fokker 50” samolyoti bilan sodir boʻldi.

Ekipaj darhol dispetcherga muammo haqida xabar bergan va samolyotni qaytarishni soʻradi. Ammo u uchish-qoʻnish yoʻlagida toʻxtay olmagani va natijada favqulodda suvga qoʻnishga majbur boʻldi. Samolyot bortida 50 nafar yoʻlovchi va 5 nafar ekipaj aʼzosi bor edi. Aviakompaniya vakilining taʼkidlashicha, uchuvchining tezkor harakati bortdagi barcha odamlarning hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi rol oʻynagan.

– Favqulodda qoʻnishga olib kelgan texnik nosozlik sabablarini aniqlash uchun tergov-tekshiruv olib borilmoqda, – dedi “Starsky Airlines” vakili Hasan Muhammad Aden.

MATBUOTDAGI TANQIDNING KUCHI

Italiyada boʻlib oʻtadigan qishki Olimpiada oʻyinlari arafasida Xalqaro olimpiya qoʻmitasi buyurtmasiga koʻra xususiy onlayn-doʻkon avval boʻlib oʻtgan olimpiadalar ramzlari tushirilgan futbol kollar kolleksiyasini sotuvga chiqargan edi.

Jumladan, kolleksiyada Afina, Rim, Los-Anjeles, Seul, Sidney va boshqa shaharlarda oʻtgan olimpiadalar motivlari taqdim qilingan. Kolleksiya tavsifida shunday deyilgan: “Har bir oʻyin insonparvarlikni ulugʻlash uchun dunyo bir joyga toʻplangan tarixdagi betakror vaqt va betakror joyni aks ettiradi”.

Germaniyaning “Bild” gazetasi vakili kolleksiyada 1936-yilgi Olimpiadaning rasmiy plakati tushirilgan futbolka ham sotilayotganiga eʼtibor qaratdi. Muxbir bilan suhbatda Berlin federal oʻlkasi parlamenti deputati, “Ittifoq-90/Yashillar” partiyasi vakili Klara Shedlix 1936-yilgi Olimpiada natsist rejimining propagandasida markaziy vosita boʻlganini eslatdi. Bu tanqiddan soʻng onlayn-doʻkon 11-fevral kuni Germaniyada oʻtkazilgan 1936-yilgi Olimpiada ramzlari tushirilgan futbolkanini sotuvdan olib tashladi.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TOʻLAGANOV
(«Xalq soʻzi») tartyrladi.



Hazrati Boburning shonu shuhrati va qadr-qimmatini joyiga qo'yish, uning bebaho merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish, butun dunyoga targ'ib etish hurmatli olim va adiblarimizning, hammamizning muhim burchimiz hisoblanadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Talqin

Mirzo Bobur bukilmas iroda sohibi edi. U hayotning ko'ziga tik qaragan, taqdir

zarbalaridan dovdirab qolmagan, har qanday sharoitda kurashish uchun o'zida kuch topgan. Ko'rgiliklarni ko'raverib, diydasi qotib ketgan bu matonatli inson hayot sinovlari oldida dahshatga tushmaydi. Qismatning shafqatsiz qo'li uni Vatanidan badarg'a qilganida tabiatidagi tug'ma shijoat va iroda tufayli u begona yurtlarda jon saqlab qoldigina emas, balki uch asrdan ortiq hukm surgan buyuk boburiylar saltanatiga asos soldi. Bunday uzoq muddat hukmronlik rutbasini saqlab qolgan sulolalar jahon tarixida juda kam.

ROST SOʻZ SOHIBI

“Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga yarashib tushgan hukmdorlarning yorqin namoyandalaridan biridir. Uning shaxsi oliyanob inson va ulug' shohga mansub bo'lgan fazilatlardan tarkib topgan, – deb yozadi ingliz olimi Uliyam Erskin. – Kechirgan hayoti, jangu jadallar va sarguzashtlar borasida avlodlaridan hych biri uning taqdirini takrorlay olmadi”.

Mirzo Boburning o'ziga xos fazilati shundaki, u nafaqat qiyinchiliklarni mardonavor yengdi, balki o'z asarlarida murakkab taqdirdi, chekkan sitamlari haqida avlodlariga rost so'zni ayta oldi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,

Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.

Har kim bu “Vaqoe”ni o'qur, bilgaykim,

Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdum.

Qizi Gulbadanbegimning e'tirof etishicha, Amir Temur zamonidan buyon o'tgan podshohlar ichida u kabi notinch bo'lgani yo'q. O'zi iqror bo'lib aytganidek, 11 yoshidan so'ng butun hayoti davomida Ramazon hayitini ikki marta bir yerda kutib olish unga nasib etmagan. Chindan ham, hali bolaligidayoq taqdir uni balolar girdobiga otdi. U boshidan kechirgan sinovlar bemalol o'nta odamga ham yetib ortadi. Shum falakning barcha nayranglariga sabot bilan bardosh bergan, zamonaning bor adolatsizliklarini ko'rgan, odamlarning jabru jafolari, xiyonatlariga chidagan, deyarli osuda umr kechirmay dunyodan o'tayotgan bir inson achchiq haqiqatni bayon etishi tabiiy edi. Boshqa bir g'azalida bu fikr yanada rivojlanib, kengayib, ochiq-oshkor tus oladi:

Har yong'akim azm etsam, yonimda borur mehnat,

Har sorikim yuzlansam, o'trum'ga kelur qayg'u.

Yuz yavritam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan,

Osoyishe kam ko'rgan mendek yana bir bormu?!

Ergash OCHILOV,

filologiya fanlari nomzodi, professor.

Hikmatlar

Asru ko'p emish jur'atu himmat sizga,
Ro'ziy qil'ay Xudoy nusiart sizga.

Mardonali'ingizni borat el bildi,

Rahmat sizga, hazor rahmat sizga!

Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidur,
Har kimki jaf o'lsa, jaf o' topgusidur,
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonligi' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topgusidur!



VOQYEIY MISRALAR

Mirzo Boburning lirik merosi miqdor jihatdan uncha katta emas. Ular orasida esa ruboiylar alohida ahamiyatga ega. Bizga ma'lum ruboiylarining soni 230 ta. Bu esa Bobur devonidagi boshqa janrlarga nisbatan ko'p. Savol tug'iladi: shoir nega ruboiyga ko'proq murojaat qilgan?

Tadqiq



“Boburnoma”ga ishlangan miniatura.

Fikrimizcha, Mirzo Boburning hayoti davomida xotirjam o'tirib, tinch sharoitda ijod bilan shug'ullanish imkonini kam bo'lgan. Ammo she'riyat uning qalb amri va istagi edi. U ijodiy tug'yun bilan yashagan. Biroq muassil ijod bilan shug'ullanishga ko'plab harbiy yurishlar, janjalar, davlat boshqaruvi ishlari xalaqit berib turgan. Ko'ngilda paydo bo'lgan tuyg'u va kechinmalarni bayon etish uchun esa bunday sharoitda ruboiy juda qulay she'riy shakl edi. Shu bois Mirzo Bobur ko'pincha o'z his-tuyg'ularini ruboiy orqali ifodalagan ko'rinadi.

Ulug' shoir lirikasida yozishmalarga oid ruboiylar ham mavjud. Masalan, bir she'rida o'z do'stlaridan biriga murojaat etib, agar ahhobga xat yozadigan bo'lsa, uni ham tilga olishni so'raydi. Xatni keltiruvchi qosid ko'ngulni shod qilishini istaydi:

Ahhobg'a har xatki, savod etgaysen,

Bizni dog'i ul bitikda yod etgaysen.

Maqsudki, qoside agar kelsa bu yon

Bir noma bila ko'ngulni shod etgaysen.

Mirzo Bobur devon tartib qilgani ma'lum. Bu devonni o'zining shoir do'stlaridan biriga sovg'aga berib yuborgan, degan taxmin ham bor. Lekin kamtarlik bilan bu devonning tartibisiz, jadvalsiz, lavhsiz va bezaksiz ekanini ham aytadi. Ya'ni devonga xos to'liq xususiyatlarga ega emas:

Devonima ne rabtu ne tartibdurur,

Ne jadvalu ne lavhu ne tazhibdurur.

Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim,

Devonignini tilarga taqribdurur.

Bu ruboiy “Boburnoma”dagi “Fo'lod Sultong'a devonimni yibordim...” degan ma'lumotni va bu devonni atrofda qilarga Boburning o'zi jo'natganini tasdiq etadi.

Shoir ruboiylari katta tarixiy voqyealar, hodisalarga ham aloqador. Misol uchun, “Boburnoma”da Hindiston fathiga bag'ishlangan “Fathnoma” ostiga ushbu ruboiy yozib qo'yilgani qayd etiladi:

Islom uchun o'vorai yoziy bo'ldum,

Kuffuro hunud harbsoziy bo'ldum.

Jazm aylab edim o'zni shahid bo'lmoqqa,

Al-minnatu-illahlaki, g'oziy bo'ldum.

Yoki mamlakat ishlarining borishi, ularning jahd bilan amalga oshirilgani, endi bu ishlarni davom ettiruvchi shaxsa ishonch bilan topshirilmog'i yana boshqa bir ruboiyning mazmunini tashkil qiladi:

Yillar tilab, ishini qobu saxlab turdum,

Yuz jahd bila ishini munga yetkurdum.

Mardona bo'li, emdi yaxshidur ish kelishi,

Tengriga seni, elni senga topshurdum.

Taxminimizcha, shoir bu ruboiyni o'g'li Humoyun mirzoga bag'ishlagan. Negaki, u taxt vorisi edi.

Mirzo Bobur ruboiylari lirikaning nodir namunalari, go'zallik, vafo, samimiy muhabbat tuyg'ularini ulug'lovchi yuksak badiiyat to'la ijod mahsullaridir. Ayni zamonada bu asarlar o'zbek adabiyoti tarixida ruboiy she'riy janrining tadrijiy taraqqiyotidan ham darak beradi. Shu ma'noda, Mirzo Bobur o'zbek she'riyatidagi ilg'or bir an'anani – ruboiyshunoslikni yangi bosqichga olib chiqa oldi.

Otabek JO'RABOYEV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ARMONLI DUNYO

Tarixdan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur Hind o'lkasida katta imperiyaga asos solgan. Shuningdek, badiiy ijod, ilm-fan bilan shug'ullanib, she'ru g'azallar, memuarlar yozgan. Ayniqsa, Mirzo Bobur uchun adabiyot alohida ko'ngil ishi edi. She'riyat hayotda yetolmagan orzulari, erisha olmagan maqsadlari hamda o'zi “yuz qarolig” deb hisoblagan Vatandan olisda yashashda taskin ham edi:

Fikr

Davron meni o'tkardi saru somondin,

Oyirdi meni bir yo'la xonu mondin,

Gah boshima toj, gah baloi ta'na,

Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

Darhaqiqat, insonning butun borlig'i, saodati Vatan ichra, ona diyor bilan birga deb bilgan Mirzo Bobur ana shu baxtdan mosuvo edi. Shu bois ushbu she'rda “garchi shoh bo'lsam-da, davron meni xonumonimdan – yurtimdan ayirdi, boshimdagi toj esa mudom ta'na bo'ldi”, deya yozadi.

Ma'lumki, Bobur va uning avlodlari Hind diyorida ko'plab bunyodkorlik ishlariga, madaniy-ma'naviy yangilanishlarga boshchilik qilgan, bu o'lkani dunyodagi eng go'zal mamlakatlardan biriga aylantirgan. Tabiiyki, bu tarixiy jarayonlarda Mirzo

Boburning qat'iyati va shijoati muhim o'rin tutgan. Garchi boburiylar Hindistonni Vatan sifatida maskan tutib, 332-yil davomida boshqargan bo'lsa-da, Bobur o'z Vataniga qaytishga bir necha bor urinadi. Bu yo'lda kurash olib boradi. Bir ruboiysida agar imkon bo'lsa, o'zga yurtda “bir lahzayu bir nafas” turishga “qarori” yo'qligini ta'kidlaydi, lekin “borurimda ixtiyorim yo'tur” deb taqdir ishlariga rozi ham bo'ladi. Ammo umrining so'ngigiga qadar Vatan ishq, yurt sog'inchi bilan yashab o'tadi. Bir nafas ham yurtini unutmaydi. Xususan:

Andijonim qoldi mani,

Anda jonim qoldi mani,

deya farzandlariga, avlodlariga, qolaversa, bugungi yoshlarimizga inson uchun tug'ilgan yurtidan boshqa muqaddas Vatan yo'qligini bot-bot uqtiradi.

Fayzulla ISKANDAROV,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

TARIXIY HAQIQAT TIKLANMOQDA

Bobur nafaqat adib, balki kuchli davlat asoschisi ham edi. U Hindistonda boburiylar saltanatiga asos solib, mustahkam va samarali boshqaruv tizimini yaratdi. Ushbu saltanat keyingi asrlarda mintaga taraqqiyotida muhim o'rin tutdi. Tarixiy adabiyotlarda, afsuski, Hindistonda barpo etilgan bu davlat ko'pincha “Buyuk mo'g'ullar imperiyasi” nomi bilan tilga olinadi. Mazkur atamaning qanchalik asosli ekanini esa bugungi kunda ham ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Mushohada

Bu masala yuzasidan xorijlik, zamonaviy tarixchilardan Aabhas Maldahiyar o'z tadqiqotlarida muhim mulohazalarni ilgari suradi. Uni, avvalo, o'zlarini temuriylar deb atagan sulolaning nega tarixda “mo'g'ullar” nomi bilan mashhur bo'lib ketgani masalasi qiziqtiradi va bu holat chuqurroq tadqiqot olib borishga undaydi. Olim qator birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan tanishib chiqqanini qayd etadi.

Aabhas Maldahiyar 2024-yilda nashr etilgan “Bobur. The Chessboard King” asarida Bobur “Boburnoma”da “mo'g'ul” atamasini 400-martadan ortiq qo'llaganini ta'kidlaydi. Biroq muallif fikriga ko'ra, Bobur bu atamani o'z sulolasiga nisbatan emas, balki alohida guruh

va qabilalarni ifodalash uchun ishlatgan. Aksincha, asarda Boburning mo'g'ullar haqida ijobiy fikr bildirmagani, bir necha o'rinda esa o'zini aniq tarzda temuriy shahzoda sifatida qayd etgani kuzatiladi.

So'nggi yillarda Bobur va temuriylar tarixiga doir masalalarga xorijiy ilmiy muhitda yangicha, xolis va manbalarga tayangan yondashuvlar kuchayib borayotgani, shubhasiz, quvonarli holat. Bu yondashuv milliy tariximizni xolis va haqqoniy tarzda anglash hamda uni jahon miqyosida to'g'ri talqin etishga xizmat qilmoqda.

Yulduz ZAYNIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti tayanch

doktoranti.

“BOBURNOMA” – MUKAMMAL ENSIKLOPEDIK ASAR

“Boburnoma” nafaqat XV-XVI asrlar chegarasida yaratilgan adabiy yodgorlik, balki tarix, etnografiya, lingvistik, geografiya, botanika va zoologiya sohalariga oid noyob ilmiy manbadir. Unda muallif Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tabiati hamda aholisi haqida yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni keltiradi. Uning etnografik va topografik kuzatuvlari mufassalligi va ishonchiligi bilan ajralib turadi. Shu bois “Boburnoma” mintaqaning fizik va iqtisodiy geografiyasi bo'yicha noyob birlamchi manba hisoblanadi.

Hayrat

Asarda Markaziy Osiyo faqat siyosiy kurashlar maydoni emas, balki chuqur o'rganilgan geografik makon sifatida tasvirlanadi. Hududning relyefi, iqlimi, suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, iqtisodiyoti va shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.


Muallif gidrografiya ham alohida e'tibor qaratib, Sirdaryo, Amudaryo, shuningdek, irrigatsiya uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan kichik daryolar va ariqlar haqida ham ma'lumotlar beradi. U qayd etgan ko'plab geografik nomlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Kobuldan Markaziy Osiyo va Hindistonga olib boradigan karvon yo'llari, tog' so'g'moqlari va dovonlar haqidagi qaydlar, ayniqsa, katta ilmiy ahamiyatga ega. Ularning aniqligi XIX asrda yevropalik tadqiqotchilarni ham hayratga solgan. Jumladan, 1832-yilda

Mirzo Bobur qabrini ziyorat qilgan sayyoh Aleksandr Berns “Boburnoma”dan yo'lko'rsatkich sifatida foydalangan va asarda tavsiflangan yo'llar o'z davri topografiyasi bilan to'liq mos kelganini ta'kidlagan.

Mirzo Bobur o'z asarida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va tabiiy resurslar borasida ham batafsil yozadi. U qaysi oazislarda qanday ekinlar yaxshi o'sishini (Buxoroda qovun, Koniobodda bodom, Marg'ilonda o'rik), shuningdek, Andijonda neft, Kes hududida (Namangan viloyatidagi Kosonsoy tumani) mis, Xo'jand atrofida firuza mavjudligini qayd etadi.

Taniqli genetik, botanik va seleksioner N. Vavilov Mirzo Boburni “o'z davrining birinchi botanigi va naturalisti” deb atagan. U madaniy o'simliklar kelib chiqish haqidagi nazariyasini ishlab chiqishda Farg'ona vodiysidagi qovun, uzum, anor va o'rikning qadimiy navlari haqida Bobur keltirgan ma'lumotlarga tayangan.



Bobur tabiatni faqat kuzatuvchi sifatida emas, balki amaliy tadqiqotchi sifatida ham namoyon etgan. U o'simliklarni introduksiya qilish va iqlimga moslashtirish bilan faol shug'ullanib, Kobul, Agra, Dehli va Kashmirda bog'lar barpo etgan. Turli mintaqalarga qovun, uzum, meva va manzarali o'simliklarni olib kelgan hamda ularning moslashuv natijalarini qayd qilib borgan.

Xotirlar to'plami emas, balki o'z davridan ancha ilgari olib ketgan mukammal ensiklopedik asardir. Va u bugungi kungacha ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Bu esa Mirzo Bobur merosining Sharq tabiiy fanlari tarixi uchun beqiyos ahamiyatga egaligini yaqqol tasdiqlaydi.

Lyubov QO'CHQOROVA,

O'zbekiston Milliy universiteti

professori,

biologiya fanlari doktori.

Qohira universitetidagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va madaniyati xonasi tashkil etiladi.

Xalq soʻzi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yublab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.12 Topshirildi – 00.30 1 2 3 4 5 6